



DYNAMICS OF INVESTMENT POLICY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

CHET TILI FANI O'QITUVCHILARNING KASBIY RIVOJLANISHIDA ZAMONAVIY METODIKA VA INNOVATSION PEDAGOGIKA JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Shodiyev Jaxongir Yusuf o‘g‘li

*Navoiy viloyati Navoiy shahri 16-sonli Davlat ixtisoslashtirilgan umumta 'lim
maktabining ingliz tili fani o‘qituvchisi*

Annotatsiya Mazkur tezisda chet til o‘qitish zamovaniy metodikasi va innovatsion multimedia haqida, shuningdek uning fan sifatida rivojlanish tarixi, chet til o‘qitish zamonaviy metodikasida ishlatilayotgan zamonaviy metod turlari va ularni qo‘llash xususida so‘z boradi.

Kalit so’zlar: innovatsiya, xorijiy til, kommunikatsiya, ko‘nikma, malaka, didaktika, madaniyatlararo muloqot.

Abstract This thesis discusses the methodology of foreign language teaching, the history of its development as a science, the types of modern methods used in foreign language teaching methods and their use.

Keywords: innovation, foreign language, communication, skills, competencies, didactics, intercultural communication.

KIRISH

Ayni zamonaviy taraqqiyot davrida ta’lim rivojida yangi yo‘nalish innovatsion pedagogikani olib kirdi. Innovatsion – inglizcha “yangilikni kiritish (tarqatish)” ma’nosini beradi. Yangilik kiritishning ijtimoiy-psixologik aspekti Amerika tadqiqotchisi E.B.Rodgers tomonidan ishlab chiqilgan. “Innovatsiya”- bu ta’lim-tarbiya va ma’lum bosqichlari bo‘yicha rivojlanadigan holat hisoblanadi. Jahon ilm-fan taraqqiyoti kundan-kunga rivojlananib bormoqda. Bu ijobjiy rivojlanish bizning diyorimizga ham o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Ilm jahonga ilg‘or innovatsion texnologiyalar tatbiq etilmoqda. Ta’lim sohasiga zamonaviy innovatsion texnologiyalarning keng tatbiq etilishi ham chet tili fani o‘qituvchilar o‘z ustida ishlab, kasbiy mahoratini oshirish yo‘lida dasturamal bo‘lib xizmat qilmoqda.

Respublikamizda G‘arbiy Yevropa (ingliz, ispan, nemis, fransuz) tillari va Sharq (arab, turk, fors, xitoy, hind) tillari o‘qitilib kelinmoqda. Bu tillar ta’lim muassalarining o‘quv rejalaridan o‘rin olgan. Bu esa o‘z navbatida, tegishli chet til o‘qitish texnologiyasini qo‘llashni taqozo etadi. Pedagoglar o‘z mutaxassisliklari bo‘yicha zamonaviy metodika va innovatsion multimedia darslarni zamon talablariga mos ravishda o‘tib, talaba-o‘quvchilarni qiziqirgan savollarga to‘liq javob berib, ular oldida o‘z kasbining mutaxassisini ekanligini isbotlash kerak. Chet til muallimi metodika fani yutuqlarini puxta o‘zlashtirish orqali o‘quvchi-talabaning to‘plagan til tajribasi me’yorini aniq bilishga va uni yanada takomillashtirishga erishadi. Chet tillarni samarali o‘rgatish uning metodikasini bilishni taqozo etadi. Chet tillarni o‘rganish va o‘rgatish ko‘p jihatdan chet til o‘qitish metodikasi masalalarini nazariy tomondan ishlab chiqilishiga va nazariyaning amalda ijodiy

qo'llanilishiga bog'liqdir. Metodikaning predmeti – chet til predmeti orqali ta'lif-tarbiya berish jarayoni va usullari, chet til o'rgatish ilmi, pedagog va o'quvchi faoliyatini o'rganish zamonaviy metodikaning predmeti sanaladi. Zamonaviy metodikaning asosiy tushunchalari – metod, usul, prinsip. Metod – metodika tushunchasi grek-lotincha "metodos-“metodus” so‘zidan olingan bo‘lib, ma'lum maqsadga eltuvchi yo'llar, usul ma'nosini anglatadi. Turli adabiyotlarda atamaning tor va keng ma“nosini uchratish mumkin. "Metodika" atamasi tor ma'noda ta'lifning konkret dars jarayoni bilan bog'liq tushunchani anglatadi. Darslarni rejalashtirish va zamonaviy multimedia va o'quv materiallarini tayyorlash bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatmalarini qamrab oluvchi boshqariladigan dars jarayoni sifatida talqin etiladi.

Chet til o'qitish metodi – pedagog chet tili o'rgatishning amaliy, umumta'limiylar, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlariga erishuvni ta'minlovchi o'qituvchi va talabaning faoliyatining yig'indisi tushuniladi. Zamonaviy metod atamasi "ta'lif usullari yig'indisi" va "ta'lifning zamonaviy yo'nalishi" ma'nolarida qo'llanadi. Birinchisi ta'lif nazariyasida jarayon metodlar ma'nosida ishlatsa, ikkinchi ma'noda uni o'qitish metodikasi tarixiga oid asarlarda uchratishimiz mumkin. Masalan, chet til o'qitishning tarjima metodi, to'g'ri metod, ongli-qiyosiy metod, an'anaviy metod, intensiv metod va boshqalar hisoblanadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, pedagog har doim o'z ustida ishlashi, dars jarayonlariga yangilik olib kirishi, zamonaviy metodika bilan uyg'unlashgan holda innovatsion pedagogika va multimedia jihozlari bilan dars mazmunini boyitishi bu zamon talabi hisoblanadi. Shuningdek, pedagog dars mobaynida nafaqat o'zi ishlashi balki o'quvchilarni ham dars jarayoniga qiziqtira olishi, o'z fikrini erkin bayon etishga o'rgatishi lozim. Albatta, bu natijaga faqatgina darsni to'g'ri tashkil etish, zamonaviy innovatsion texnologiyalardan keng amalda foydalanish orqaligina erishish mumkin. O'qituvchining innovatsion faoliyati o'z ichiga yangilikni tahlil qilish va unga baho berish, kelgusidagi harakatlarning maqsadi va konsepsiyasini yaratish, amalga oshirish va tahlil qilish, samaradorlikka baho berishni ham qamrab oladi.

XULOSA

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida chet til bilan ona tilini taqqoslab o'rgatish samarali natija beradi. Chet til o'rgatish uning metodikasiga oid bilimlarga ega bo'lishni ko'rsatadi. Innovatsion texnologiyalar chet til o'rganish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Darsni tashkil qilishda metodika fanining turli yo'llari mayjud. Xorijiy til o'qitish metodikasida keng qo'llaniladigan metodlar: kommunikativ didaktika metodi, zamonaviy muloqotni tashkil qilish metodi va mashqni to'g'ri tashkil qilish metodi hisoblanadi. Uchala metod bir biri bilan chambarchas bog'liq va bir-birini to'ldiradi. Metodika fani didaktika fani bilan bog'liq bo'lganligi sababli, chet til o'rganish mobaynida kommunikativlikka asoslaniladi va kommunikativ didaktika metodi yuzaga keladi. Bilimlarni o'zlashtirish uchun topshiriq bajarish eng yaxshi usul hisoblanadi. Topshiriq nafaqat chet til ta'limida balki barcha soha bilimlarini o'zlashtirishda ham ijobjiy natija beradi. Darsni mazmunli tashkil etish, unda o'qituvchi faoliyati va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni beqiyosdir. Xorijiy til o'rganish jarayonini kommunikativlikka yondashgan holda yaratish, keyingi bosqich zamonaviy muloqot



darajasiga yetkazish, bunday natijalarga erishish uchun esa, so‘ngi qadam, “mashq texnologiyasi”ga e’tibor qaratish muhim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. N.B.Maxmudov. (2020). “Xorijiy tillarda metodika va texnologiyalarni o‘rnini va ularning turli jihatdan tasniflanishi”. Science and Education, 1(Special Issue 3).
2. B.B.Jo‘rbo耶ev. (2020). “Chet tilini o‘qitishda kommunikativ yondashuv”. Science and Education, 7(7), 215-220.
3. E.B.Rodgers. (2021). “Using authentic materials on english lessons”. Academic research in educational sciences, 2(2).
4. S.M.Samarova.(2018).“Forming Creative Vision of Person as Universal Method Enhancing Creativity”. Eastern European Scientific Journal, (6).
5. K.A.Shokarimova. (2020). “Pedagogik qobiliyat va pedagogik mahoratning ta’lim-tarbiya berishdagi ahamiyati”. Science and Education, 1(Special Issue 2).